

ISSN 2181-8258

DOI prefiksi:10.69691

IF-9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine



TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

1 (64)

2025

JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING MA'NAVIY OMILLARI

*Imamova Umida Ismoil qizi, Chirchiq davlat pedagogika
universiteti o'qituvchisi*

MORAL FACTORS OF ENSURING INFORMATION SECURITY IN SOCIETY

*Imamova Umida Ismail kizi, teacher at Chirchik State
Pedagogical University*

ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

*Имамова Умида Исмаил кызы, преподаватель Чирчикского
государственного педагогического университета*

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda bugungi kunda jamiyatga xavf solayotgan axborot xavfsizligi, uning yoshlar ongiga salbiy ta'siri, axborot xavfsizligini ta'minlashda davlat idoralarining roli hamda axborot xavfsizligini ta'minlashning ma'naviy omillari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot xavfsizligi, axborot asri, globallashuv, "ommaviy madaniyat", ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy tahdidlar.

Abstract: This article discusses the security of information that threatens society today, its negative impact on the minds of young people, the role of government agencies in ensuring information security and the moral factors of information security.

Key words: information security, information age, globalization, "mass culture", spiritual values, spiritual threats.

Аннотация: В данной статье рассматривается безопасность информации, которая угрожает обществу сегодня, ее негативное влияние на сознание молодежи, роль государственных органов в обеспечении информационной безопасности и нравственные факторы информационной безопасности.

Ключевые слова: информационная безопасность, информационный век, глобализация, "массовая культура", духовные ценности, духовные угрозы.



<https://orcid.org/0009-0007-3028-6117>

e-mail:

umidaimomova07@gmail.com

KIRISH. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganlaridek: XXI asr axborotlashgan jamiyat asridir. "Axborot ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tarqiyotning muhim omilidir. Shu sababli ham u inson taffakuriga turli yo'nalishlarda ta'sir etuvchi, insoniyatning hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi ijobiy-salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi".

ASOSIY QISM. Bugungi hayotimizning hamma sohalarida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining o'zni beqiyos darajada katta ekanligi hammamizga ma'lum. Hozirda axborot sohasida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning asosini axborotlashtirish telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi. Bugungi kunda insoniyat juda tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan globallashtirish davrida yashamoqda. Bu davr turli nomlar bilan ataladi. Ba'zilar buni "globallashtirish asri" deb atasa, boshqalari buni "axborot asri" deb talqin qiladilar. Keyingi yillarda butun dunyoda axborot almashinuvining jadal rivojlanishi natijasida "axborot xavfsizligi" tushunchasi vujudga keldi. Internet barcha mamlakatlar va barcha yoshdagi odamlar uchun axborot almashinuvining yagona vositasiga aylandi. Asrlar davomida bu san'at, sirli yozuv jamiyatining yuqori tabaqalari, davlatning elchixonalar rezidensiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin jamiyatimizda hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Shu tarzda axborotni himoyalash zaruriyati tug'ildi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keldi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida axborotlar o'zining hayotiy davriga ega bo'ldi. Bu davr uni yaratish, undan foydalanish va uning xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Mamlakatimiz rahbarlari doimo asarlarida ma'naviy tahdidlar, unga qarshi kurashish zaruriyati, bu boradagi vazifalar va

axborot xavfsizligida milliy xavfsizlik masalalari, yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish, axborot olish erkinligini ta'minlash va bunda axloqiy tarbiya vositalaridan foydalanish, ya'ni axloqiy tarbiya bu shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlab kelganlar. Jamiyatimizning hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrida biz insonlarning hech birimiz kundalik turmush tarzimizni axborot va axborot ulashuvchi vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Ushbu axborot olish jarayonida biz internet, ijtimoiy tarmoqlar, televedeniye, gazeta, junallar, kitoblardan keng foydalanamiz va bu jamiyatimizning rivoji uchun katta ahamiyatga ega.

Globallashtirayotgan davrda axborot xurujlari kundan kunga ortmoqda. Zamonaviy kompyuter inqilobi sharoitida, ya'ni axborotni saqlash va uzatish vazifalari amalda mashinalarga yuklangan davrda, axborot muammosida uning xavfsizligini ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat xavfsizligini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Shu bois O'zbekistonda ham axborot manbalari va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik asoslari yaratildi va davlat axborot infrastrukturasi shakllanishida ijobiy rol o'ynamoqda. Shunga qaramasdan axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatish tizimlaridan foydalanishda himoya va kirishni cheklash vositalaridan minimal holda foydalanilmoqda. Bunda milliy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi ma'lumotlarning chiqib ketishi va davlat axborot maydoniga kirib kelish xavfi o'sib boradi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizning amaldagi qonunchiligiga ko'ra, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, tarqatish va sotish ta'qiqlangan. Aytish kerakki, chetdan kirib kelayotgan kinofilmlarning asosidagi g'oyada shaxs ruhiy holatini izdan chiqarish, ulardagi estetik didni yo'qotish va jamiyatda axloqiy parokandalikni keltirib chiqarish nazarda tutiladi. Ularning maqsadi ko'z ilg'amas darajada yashirin va bir qarashda zararsizdek tuyulsa-da, mohiyatan bu mavzudagi filmlar ruhiy va axloqiy parokandalikni ko'zlaydi. Afsuski, chegara bilmaydigan bu kabi ma'naviy tahdidlar ta'sirida

yoshlarimiz dunyoqarashida ma'naviyatimizga zid bo'lgan odatlar ham uchramoqda.

XULOSA. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Insonlarning kundalik iste'moliga aylangan "internet", "radio-televedeniye"dan har xil siyosiy kuchlar unumli foydalanmoqdalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sahieva M. Yoshlar ruhiyatiga ma'naviy tahdidlar va ularni bartaraf etishning psixologik xususiyatlari // Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish xavfsizlikni ta'minlash omili sifatida. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent, 2019 yil noyabr. 94-97 betlar.
2. Mo'minov F., Baratov Sh. va boshqalar. Ochiq axborot tizimlarida axborot psixologik xavfsizlik. Darslik. – Toshkent, 2020.

3. Nusriddinovich, I.N., & Ilhomkhojayevna, A.N. Cyber threats, vulnerabilities and risks in economic sectors. //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2022. 10(9), 139-140.

4. Ibragimov,N., Amirov,A., & Abduraxmanov,V. (2022). Axborot tizimlarining tahdidga zaifligi//Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: Muammolar va yechimlar, 1(28), 15-18.

5. Dilaram Nugmatullayevna Abdullayeva Human gender potential and opportunities in new Uzbekistan.//Western European Journal of Historical Events and Social Science. Volume 2, Issue 11. November, 2024. –P.123-128.

6. Koshanova N.M. Socio-philosophical analysis of the phenomenon of "cultural crash"//European Science Methodical Journal. -2024.T.2.-№6.C.477-480.

7. Koshanova N.M. Zamonaviy jamiyatda intellektual madaniyatning rivojlanishi:muammo va imkoniyatlar//Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023/12.-B.208-212.

